



ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING
NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Shadiyeva Dilfuza Urinbayevna.

Angren Universiteti.”Pedagogika va
psixologiya”kafedrası o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ yondashuvning mohiyati, uning ona tili fanidagi o‘rni, boshqa fanlar bilan bog‘liq holda o‘qitish metodlari va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, aniqlilik, **asotsiatsiyaviylik**, tizim, metod, mantiqiy fikrlash, fanlararo integratsiya.

Аннотация: В статье рассматривается сущность интегративного подхода, его роль в преподавании родного языка, методы обучения и эффективность в сравнении с другими предметами.

Ключевые слова: интегративный подход, точность, ассоциативность, системность, метод, логическое мышление, междпредметная интеграция.

Abstract: This article discusses the essence of the integrative approach, its role in the subject of the mother tongue, teaching methods and effectiveness in relation to other subjects.

Keywords: integrative approach, accuracy, associativity, system, method, logical thinking, interdisciplinary integration.

Jahonda rivojlangan mamlakatlar globallashuv sharoitlarida madaniy-ma'naviy taraqqiyot yo'lida ma'naviy-estetik qadriyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, o'qitishning metodik ta'minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga muhim omil



sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta'limga berilayotgan e'tiborning samarasi o'laroq yurtimizda olib borilayotgan turli islohotlarning ta'lim bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak-zamonaviy ta'lim metodikalarining kundalik turmush hayotimiz bilan bog'liq jihatlarini maktab ta'lim tizimi bilan bevosita bog'lash o'rirlidir. Jumladan ona tili darslarini tashkil etishda fanlararo integratsiyalashuvning o'ziga xos xususiyatlari- ham ilmiy ham nazariy jihatdan o'z samarasini berib kelmoqda.

Rus pedagogi V. S. Kukushin "Integratsiya-bu bir yoki bir nechta turli fanlar bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi bilimlarning yaxlitlikka asoslangan xususiyatga ega bo'lgan tizimga birlashuvchi o'ziga xos jarayondir" deb baho beradi. Fanlararo integratsiya haqida fikr almashishdan oldin integratsiya o'zi nima?, uni qanday qo'llash kerak?- singari savollarga javob topish lozim. Integratsiya g'oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. (U ta'limda turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish muhimligini ta'kidlagan va tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar va axloq fanlarini birgalikda o'qitish g'oyasini ilgari surgan).

Integratsiyaning ta'lim sistemasida muhimligini birinchilardan bo'lib mashhur nemis pedagogi-I.F.Gerbert tushuntirib bergan. U ta'lim va tarbiya jarayonini tizimli ravishda o'rganib, pedagogikaning nazariy asoslarini yaratgan va ta'limda integratsiyani qo'llashning to'rtta yo'nalishi mavjud ekanini ta'kidlagan. Bular quyidagilar:

- Aniqlilik;
- Asotsiatsiyaviylik;
- Tizim;
- Metod.

Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo'nalishlari bilim olishga yo'naltirilgan bo'lib, ikkinchi va uchinchi yo'nalishlari eski bilimlar va yangi bilimlarni bir-biri bilan uzviy bog'lash demakdir. Iogann Fridrix Gerbert-bu



yoʻnalishlar orqali integratsiyalashuv jarayoni mukammal ravishda sodir boʻlishini ilmiy asoslab bergan.

Integratsiya (lot. Integration-tiklash, toʻldirish, integer - butun)-bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bogʻlanish hosil qilishi hisoblanadi. Ona tili darslarida integrativ yondashuv har tomonlama va samarali taʼlim olish uchun juda muhim asosdir. Turli fanlar va koʻnikmalarni umumlashtirish orqali oʻquvchilarga kengroq bilimlar bazasi va kengroq koʻnikmalar toʻplami taqdim etiladi. Integrativ yondashuv, ayniqsa, muloqotning murakkabligi va talab qilinadigan turli xil koʻnikmalar va elementlarni nazarda tutgan holda, ona tili darslarida juda ham dolzarb hisoblanadi.

Bilamizki, uzluksiz taʼlim tizimida ona tilini oʻqitish asosiy oʻrin egallaydi. Ona tili darslariga noanʼanaviy darslarni olib kirish va uni taʼlim mazmuniga singdirish, dars oʻtishning yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Ona tili darslari boshqa oʻquv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u taʼlim bosqichlarida oʻrganiladigan xilma-xil oʻquv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, texnologiya, geografiya, xorijiy tillar bilan oʻzaro aloqadorlikda oʻrganilsa, yaxshi samara beradi. Chunki taʼlim tizimida fanlararo aloqadorlik-integrativ darslarini tashkil etish oʻquvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi.

Integrativ yondashuvning yana bir muhim afzalligi shundaki, u oʻquvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Fanlararo aloqadorlik-integratsiya oʻquvchilarni ijodiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga va murakkab savollarga umumlashtirilgan yondashuv bilan javob berishga undaydi. Bugungi kunda taʼlim jarayonida integrativ yondashuv va fanlararo bogʻliqlik asosiy metodik tamoyillardan biri sifatida qaralmoqda. Ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bogʻlab oʻqitish oʻquvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish, tafakkurini rivojlantirish va amaliy



ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, integrativ yondashuv-bir fan doirasida boshqa fanlarning bilim va metodlarini qo'llash orqali o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish usuli hisoblanadi. Ona tili darslarida integrativ yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi;
- Ularni tahlil qilish va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi;
- Til va nutqiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi;
- O'rganilayotgan mavzularni hayotiy tajriba bilan bog'lash imkonini

yaratadi.

Ona tili darslarida boshqa fanlar bilan bog'liqlikni ta'minlash uchun quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Ona tili va adabiyot fanining integratsiyasi

Ona tili va adabiyot bir-biri bilan uzviy bog'liq fanlardir. Adabiy asarlar orqali o'quvchilar tahliliy tafakkur qilishga, badiiy tilni anglashga va nutqiy mahoratini oshirishga o'rganadilar.

Usul: Matn tahlili jarayonida o'quvchilarga adabiy-badiiy tahlil qilish, personajlar nutqini o'rganish, she'riy san'at vositalarini aniqlash topshiriqlari beriladi.

Samaradorlik: O'quvchilar tilda ifodalash uslublarini o'rganib, nutqini yanada boyitadi.

2. Ona tili va tarix fanining bog'liqligi

Tarixiy voqealar va shaxslar til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy va boshqa mutafakkirlarning asarlari til taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Usul: Tarixiy hujjatlar, qadimiy bitiklar yoki tarixiy shaxslarning nutqlari tahlil qilinadi.

Samaradorlik: O'quvchilar tarixiy voqealar kontekstida til taraqqiyotini tushunadi va o'z nutqida tarixiy ifodalarni qo'llashga o'rganadi.

3. Ona tili va geografiya fanining integratsiyasi



Til taraqqiyoti va dialektlar geografik omillar bilan bog‘liq. Hududiy shevalarni o‘rganish orqali tilning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash mumkin.

Usul: Turli mintaqalardagi shevalarni solishtirish, geografik atamalar tahlili, etnolingvistik tadqiqotlarni o‘tkazish.

Samaradorlik: O‘quvchilar turli hududiy shevalarni farqlash, ularning paydo bo‘lish sabablarini tushunishga o‘rganadi.

4. Ona tili va matematika bog‘liqligi

Matematik mantiq tilshunoslikda ham qo‘llaniladi. Masalan, gap tuzilishi, so‘z turkumlari, so‘zlarning tahlili mantiqiy tafakkur bilan bog‘liq.

Usul: Sintaktik strukturalar va mantiqiy bog‘liqlikni tushuntirish, murakkab gaplarning matematik ifodalari orqali tahlil qilish.

Samaradorlik: O‘quvchilar aniq va lo‘nda fikrlashga o‘rganadi.

5. Ona tili va biologiya fanining bog‘liqligi

Lingvistika va biologiya o‘rtasida ham bog‘liqlik mavjud. Masalan, artikulyatsiya organlari, fonetik apparat, insonning tilni o‘rganish qobiliyati biologik omillar bilan bog‘liq.

Usul: Tovush paydo bo‘lish jarayoni, talaffuz a‘zolarining ishlashini biologiya fani orqali tushuntirish.

Samaradorlik: O‘quvchilar fonetik tahlil qilish va talaffuzni to‘g‘ri shakllantirishga o‘rganadi.

Integrativ darslarni tashkil etish bosqichlari

1.Tayyorlov bosqichi: Fanlararo bog‘liqlikni belgilash, mavzularni tanlash.

2.O‘quvchilarga tayanch bilim berish: Har ikki fandan asosiy tushunchalarni tushuntirish.

3.Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish: O‘quvchilarga integratsiyalangan topshiriqlar berish.



4.Xulosa va umumlashtirish: Olingan bilimlarni hayot bilan bog‘lash, natijalarni tahlil qilish.

Ona tili darslarida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash quyidagi natijalarga olib keladi:

- O‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi;
- Ularning turli fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortadi;
- Nutqiy kompetensiya yanada mustahkamlanadi;
- Olingan bilimlarni amaliy qo‘llash malakalari shakllanadi.

Ona tili darslarida integrativ yondashuv va fanlararo bog‘liqlik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli fanlarni bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularga bilimlarni hayotiy misollar orqali tushuntirishga yordam beradi. Shuning uchun ham ona tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash-zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarni o‘zlashtirishini qo‘llab-quvvatlash va ularni tanqidiy ko‘nikmalar bilan qurollantirishning juda samarali usuli hisoblanadi. Dars mashg‘ulotlarida fanlararo integratsiyadan kengroq foydalanish uchun mos usullarni tanlash o‘quvchilarda fanlar yuzasidan mavjud bilimlarning mustahkamlanishini va yangilanishini ta’minlaydi hamda bilim olishga bo‘lgan rag‘batni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mavlonova. K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o‘rganish metodikasi.Toshkent-2016.y
- 2.Xurramova. Z.Ona tilini o‘qitishda integrativ yondashuv.Toshkent-2018.y
- 3.Djurayev R. Ta’limda interfaol texnologiyalar.Toshkent-2010.y
- 4.Xoliqov A. Pedagogik mahorat.Toshkent-2011.y
- 5.To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2010.y

